

“Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bo’lajak tarbiyachilarning kreativ kompetentligini rivojlantirishning ahamiyati

Saydullayeva Nargis Ilhom qizi

JDPI “Maktabgacha ta’lim “ kafedrası o’qituvchisi

nargisfarzona404@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyachilarning kreativlik sifatlari, kreativ kompetentlikni rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning nazariy asoslari yoritib berilgan.

Kalit so’zlar: maktabgacha ta’lim, bo’lajak tarbiyachilar, fan va ta’lim, kreativlik, kasbiy kompetentlik, kreativ kompetentlik, kreativ potensial.

АННОТАЦИЯ

В статье описаны творческие качества воспитателей в дошкольном образовании, теоретические основы совершенствования методики развития творческой компетентности.

ABSTRACT

This article describes the creative qualities of educators in preschool education, the theoretical basis for improving the methods of developing creative competence.

Kirish. Xozirgi zamon innovatsion rivojlanishning global vazifalaridan biri bu insonlarning kreativ fikrlashini shakllantirishdir. Kreativlik deganda insonning yangi yangi g’oyalar ishlab chiqarishi, murakkab ko’rinib turgan, yechimi ochiq turgan muammolarga yechim topa bilishi, tavakkalchilik qobiliyati, o’zining kasbiy faoliyatiga ijodiy yondashuvi hamda kasbiy yetukligi kabi harakatlari nazarda tutiladi. Jahondagi globallashtirish fan va ta’limning integratsiyalashuvi jarayonlarida bo’lajak mutaxassislarining kasbga tayyorgarligini rivojlantirish masalasi dolzarb vazifalardan biri sifatida belgilanmoqda. Zamonaviy jamiyat ta’lim tizimi oldiga yuqori malakali, intiluvchan, raqobatbardosh, tashabbuskor,

ma'naviy va jismoniy sog'lom shaxslarni tarbiyalab berish talabini qo'yimoqda. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasida "yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash, oliy ta'lim muassasalarida kompetentli ilmiy pedagogik kadrlar zaxirasini yaratish" vazifasi belgilandi. Sifatli ta'lim xizmatlarini imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining imkoniyatlariga mos keluvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish, oliy ta'lim muassasalari ta'lim sifati va samaradorligini oshirish kabi yo'nalishlar belgilanib, bu borada oliy ta'lim muassasasi pedagoglarini hamda bo'lajak mutaxassislarni kreativligini rivojlantirish, doimiy yangilanib turuvchi jamiyat hayotiga yangicha fikr va qarashlar bilan yondashuvchi yosh avlodni zamon talablariga mos ravishda tarbiyalash oliy ta'lim muassasi pedagogining muhim kasbiy vazifasi hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Jahon miqyosida pedagogik tajriba va ilmiy tadqiqotlarni tahlil qilish natijasida inson hayoti davomida egallaydigan barcha ma'lumotining 70%ini besh yoshgacha bo'lgan davrda olib ulgurishi o'z isbotini topgan. Darhaqiqat, bu davr mobaynida bola dunyoni idrok qilishni boshlaydi, fikrlaydi, atrof-olam bilan tanishadi, umri davomida oladigan bilimlarga zamin tayyorlaydi. Yurtimiz kelajagi hisoblangan yosh avlodni barkamol shaxs sifatida tarbiyalashda maktabgacha ta'lim tashkilotlari va maktabgacha ta'lim tashkilotlari mutaxassislarining o'rni beqiyosdir.

Prezident SH. Mirziyoyevning 2019- yil 19- oktyabrdagi maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilishda ta'kidlaganlaridek: "Qaysi sohani olmaylik, biz zamonaviy yetuk kadrlarni tarbiyalamasdan turib biron bir o'zgarishga, farovon hayotga erisha olmaymiz. Bunda kadrlarni, millatning sog'lom genofondini tayyorlash, avvalo, maktabgacha ta'lim tizimidan boshlanadi". Ta'lim sohasiga qo'yiladigan talablar orasida maktabgacha ta'lim tashkilotlari mutaxassislarining kasbiy va kreativ kompetentligini oshirish uchun qator chora- tadbirlar yo'lga qo'yilgan. Pedagog shaxsiga qo'yiladigan talab – eng avvalo o'z ustida izlanishlar olib borishidir. Shunday ekan, maktabgacha ta'lim tizimida eng muhim ehtiyoj maktabgacha ta'lim tashkiloti mutaxassislarining kasbiy yetukligi bilan birga kreativ kompetentligi hamdir. So'nggi yillarda kelajagimiz poydevori bo'lmish farzandlarimizga ya'ni maktabgacha ta'lim tizimiga katta e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-sentyabrdagi PQ-3261-sonli "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 2016-yil 29- dekabrda qabul qilingan PQ-2707- sonli "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, 2018- yil 3- iyuldagi Maktabgacha ta'lim Vazirligining 3032- son "O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha

yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablarini tasdiqlash haqidagi "2019- yil 16- dekabrda PQ-595-sonli "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risidagi" qonuni, 2019-yil 8- maydagi PQ 4312-sonli "Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi", 2020- yil 6- noyabrda "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim- tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora- tadbirlari to'g'risida"gi PF 6108-sonli farmon va shu kabi qarorlarining qabul qilinishi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim va tarbiya jarayoniga salmoqli yangilanishlar kiritilishiga xizmat qildi. Yurtimizda 2018-yildan Koreya tajribasiga asoslangan "Ilk qadam" o'quv dasturi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida joriy qilina boshladi. Yangi dasturga binoan, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilar bilan mashg'ulotlar beshta faoliyat markazlarida tashkil etiladi. Bu esa o'z-o'zidan shuni ko'rsatadiki, bo'lajak mutaxassislarni tayyorlayotgan oliy ta'lim muassasalarida faoliyat yuritadigan pedagoglardan ham o'quv jarayoniga mazmunan va shaklan yangiliklar kiritishni, ta'lim jarayoniga kreativlikni olib kirishni taqazo etadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat olib boruvchi bo'lajak mutaxassislarda kreativ kompetentligini rivojlantirish metodikasini integrativ yondashuv asosida takomillashtirish bo'lajak mutaxassislarning har qanaqa jarayonda o'zining ijodiy va kreativ qobiliyatlarini namoyon qilishida foydali va kerakli jihatlarni ko'rsatadi. O'sib kelayotgan yosh avlodni yangi zamon talablariga to'laqonli javob bera oladigan, har qanaqa vaziyatga kreativ yondasha oladigan, dunyoni yangicha qarashlar bilan anglaydigan kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish, ularda kreativ fikrlash va tafakkurni shakllantirish eng avvalo maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat olib boruvchi pedagog, mutaxassislardan kasbiy faoliyatlarida kreativ kompetentlikni talab etmoqda. Barkamol shaxsni voyaga yetkazishda roli beqiyos sanaladigan maktabgacha ta'lim tashkiloti bo'lajak tarbiyachilari hamda mutaxassislarni kreativ kompetentligini rivojlantirish eng avvalo oliy ta'lim muassasasi pedagoglarining zimmasidadir. Ma'lumotlarga qaraganda (yoshlar psixologiyasiga ko'ra) olti yoshgacha bo'lgan bolalar 40% iste'dod potentsialiga ega ekanlar. Bolalar eng kichik yoshdanoq ijodkorlik, yaratuvchanlikka juda moyil bo'lar ekanlar. Shunday ekan, ayni shu davr bolalarda kreativ qobiliyatlarini shakllantirishning ayni vaqtidir. Buning uchun albatta maktabgacha ta'lim tashkilotidagi mutaxassislarning o'zida kreativ sifat va kreativ kompetentlik shakllangan bo'lishi kerak. Hozirgi zamon ta'lim jarayoniga Oliy ta'lim muassasasida taxsil oluvchi bo'lajak tarbiyachilarni o'qitishda "Kreativ Pedagogika asoslari" fanining qo'shilgani talabalarning kelajakdagi kasbiy faoliyatlarida zarur bo'lguvchi kreativ kompetentligini rivojlantirilishi ta'lim jarayonini samarali va sifatli tashkil etishda xizmat qiluvchi omil bo'ladi desak, adashmaymiz. Kreativlikning mazmun va mohiyatiga to'xtaladigan bo'lsak, mamlakatimizdagi bir qator pedagog olimlarning o'quv – metodik qo'llanmalarini tahlil qilgan holda, quyidagilarni aytishimiz mumkin:

Kreativlik (lot,ingl. “create”-yaratish, “creative” yaratuvchi, ijodkor)- individning yangi g'oyalar ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati.

Kreativ kompetentlik esa- pedagogik faoliyatga nisbatan tanqidiy va ijodiy yondoshish, o'zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olishidir.

Kreativlik shaxsni yahlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Shuningdek, kreativlik iqtidorining muhim omili sifatida aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o'tkirlikni belgilab beradi. P. Torrens fikricha, “kreativlik” tushunchasi negizida quyidagilar yoritiladi:

- muammoga yoki ilmiy farazlarni ilgari surish;
- farazni tekshirish va o'zgartirish;
- qaror va natijalarni shakllantirish asosida muammoni aniqlash;
- muammo yechimini topishda bilim va amaliy harakatlar

Bolalarda kreativlikni rivojlantirishda quyidagilarga ahamiyat berish lozim:

Bolalarda kreativlikni rivojlantirishda quyidagilarga e'tibor qaratish zarur:

Odatda kreativlik bolalarning faoliyatida tez-tez ko'zga tashlansada, biroq, bu holat bolalarning kelgusida ijodiy yutuqlarni qo'lga kiritishlarini kafolatlamaydi. Faqatgina ular tomonidan ko'p savollar berilishini rag'batlantirish va bu odatni qo'llab-quvvatlash, bolalarning mustaqilligini rag'batlantirish va ularda javobgarlikni kuchaytirish, bolalar tomonidan mustaqil faoliyatni tashkil etilishi uchun imkoniyat yaratish va bolalarning qiziqishlariga e'tibor qaratish, ijodiy ko'nikma, malakalarni o'zlashtirishlari zarur degan ehtimolni ifodalaydi. Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarining bo'lajak mutaxassislarining kreativ kompetentligini rivojlantirishning nazariy asoslarini yoritishda mamlakatimiz pedagog olimlarining, jumladan N. Muslimov, M. Usmonboyeva, A. To'rayev, D. Sayfurov va boshqa olimlar tomonidan tayyorlangan o'quv-metodik qo'llanmalardan foydalanilgan.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, oliy ta'lim muassasasi talabalari va o'qituvchilari uchun kreativ kompetentligini rivojlantirishga yo'naltirilgan yondashuvning joriy etilishi ta'lim mazmuniga, o'qitish shakliga, usullariga, pedagogik texnologiyalari, nazorat usullariga hamda ta'lim va tarbiya jarayonida talabalar va o'qituvchilar orasidagi munosabatlarida yangiliklar va o'zgarishlar kiritishni talab etadi. Shunga binoan, oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak mutaxassislarni o'qitishda ta'limni tashkil etishning mavjud shakllari bo'lgan ma'ruza, amaliy, seminar va laboratoriya mashg'ulotlarini mazmunan yangilash,

qo'shimchalar kiritilishi nazarda tutiladi. Ma'ruza darslarini ijodiy va erkin fikrlovchi muammoli ta'lim shaklida, seminar darslarni kreativ sifatlarni shakllantirishga va amaliy mashg'ulotlarda kreativ kompetentlikni integrativ yondashuv asosida rivojlantirishga qaratilgan bo'lishligi kutilayotgan natijaga samarali erishishda maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5198-sonli Farmoni. 2017-yil 30-sentabr. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 30.09.2017 y., 06/17/5198/0043-son; 09.10.2020 y., 07/20/4857/1357-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar Strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-son Farmoni. – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son,
3. O'zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22 dekabrdagi "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat standartini tasdiqlash to'g'risida" 802-son Qarori / qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.12.2020 y.,09/20/802/1658-son
4. "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim muassasasining Davlat o'quv dasturi. "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim muassasasining Davlat o'quv dasturi BMTning Bolalar jamg'armasi YuNISEFning O'zbekistondagi vakolatxonasi texnik ko'magi yordamida yaratildi va nashr etildi. – T.: 2018.
5. Muslimov N, Usmonboyeva M, Pedagogik kompetentlilik va kreativlik asoslari" moduli bo'yicha o'quv-uslubiy qo'llanma. :- Toshkent 2015, 120-bet.
6. Рой А.Дж. Креативное мышление / Пер.с.англ. В.А.Островкого. М.: НТ Пресс, 2007,176с.